

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası o'qituvchisi Mirzayeva
Gulasalning ochiq dars muhokamasining
Bayonnomasi № 17

28.04.2025

Qatnashdilar: kafedra a'zolari

Kun tartibi: Xorijiy til va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi Mirzayeva Gulasalning ochiq dars muhokamasi.

Kafedra o'qituvchisi Mirzayeva Gulasalning 28-aprel, 2025-yilda filologiya fakulteti, xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich 104 -guruhida "Reading and writing" fanidan "Letters to the Editor" mavzusida o'tkazgan ochiq dars muhokamasi bo'ldi. Ochiq darsda kafedra o'qituvchilari: S. Murodova, M. M. Temirova, M.Mardonova, va G'.Jo'rayev, G.Xabibullayevalar qatnashdilar. Ochiq dars atroflicha o'rganildi va darsdan so'ng muhokama qilindi. Kafedra o'qituvchisi S.Murodova so'zga chiqdi va ochiq dars haqida o'z fikrlarini bildirdi:

"Darsda zamonaviy interfaol metodlar qo'llanilishi talabalarni bemaol o'z fikrlarini bayon etishga yordam berdi. Dars ingliz tilida olib borildi va qiziqarli bo'lib o'tdi, metodik jihatdan to'g'ri tanlangan va uch qismdan iborat holda 4 ta guruhlariga bo'lingan tarzda bo'ldi. O'qituvchi darsga to'g'ri yondashgan. Dars boshidanoq o'qituvchi tomonidan tayyorlangan **kahoot.it** sayti orqali o'tgan mavzuni takrorlash uchun tayyorlangan test ishtirokchilar tomonidan qiziqish bilan qabul qilindi va dars so'ngiga qadar barcha talabalar faol bo'lishdi. Tanlangan mavzuning o'z o'rnida juda qiziqarli. Darsning ikkinchi qismida talabalarga tarqatma materiallar tarqatildi, mavzuga oid misollar berildi va savol -javob qilindi. Darsning so'ngida talabalar baholandilar va uy vazifalari berildi. O'qituvchida ishchi dastur, dars rejasi, IEMIS platformada resurs joylashtirilganligi va mavzularni o'z vaqtida qayd etib borganligi tekshirildi.

O'qituvchi M.Mardonova so'zga chiqdi: Mirzayeva Gulasalning ochiq darsini kuzatdim. Uning darsi talabalar tomonidan katta qiziqish bilan tinglandi va juda faol ishtirok etishdi. Talabalarga olingan mavzu ravon tushuntirildi deya olaman,


yangi material bilan chuqur ishlendi, faol ishtirok etgan talabalar baholandi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Bu esa darsni mahsuldorligini oshirdi. Shuningdek o'qituvchi Mirzayeva Gulasalning hemis platformasida talabalarning mustaqil ishlarini qabul qilish holatga aniqlik kiritildi va boshqa o'qituvchilarga bu tajribani yoyish kerakligi kelishib olindi.

Kafedra a'zolari ochiq darsni atroflicha muhokama qildi.

Kafedra yig'ilishi qaror qildi:


Kafedra katta o'qituvchisi G.Mirzayevaning o'tkazgan ochiq dars talab darajasida deb topilsin va "namunali" bahoga baholansin.

Yigilish raisi:



V.Tangriyev

Kotiba:



M.Temirova



